



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Quchqarov Doniyor Abdumalik o‘g‘li<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

## XX ASRNING 20-YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MAORIF SOHASIDAGI SIYOSAT VA UNING AMALGA OSHIRILISHI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XX asrning 20-yillarida sovet hokimiyati tomonidan maorif sohasida amalga oshirilgan siyosat va uning natija va oqibatlari, mahalliy respublikalarda tashkil etilgan saavodsizlikni tugatish kurslari faoliyati ilmiy adabiyotlar tahlili asosida amalga oshirilgan.

**Kalit so‘zlar:** saavodsizlikni tugatish, Munavvar qori Abdurashidxonov, Xalq Maorif Komissarligi, bilim yurtlari.

Turkiston o‘lkasida sovetlar hokimiyatining zo‘ravonlik bilan o‘rnatalishi va mahalliy aholining aksariyati uni qo‘llab-quvvatlamaganligi, bu yerda tuzilgan yangi hukumat tarkibiga birorta o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, tojik, turkman millati vakillarining kiritilmagani tuzumming buyuk davlatchilik va shovinistik tabiatini ochib beradi. Turkiston kommunistik (bolsheviklar) partiyasining rahbari I.O.Tobolin mahalliy xalq vakillarini yuqori ma’muriy lavozimlarga tayinlashga, saylashga qat’iy qarshilik ko‘rsatib, ularni boshqaruv ishiga tayyor emas, - deb hisoblagan<sup>1</sup>.

Shunday vaziyatda bolsheviklar partiyasining va sovet hokimiyatining Markaziy va o‘lka organlari Turkiston, keyinchalik O‘zbekiston hududida sovet hokimiyatini mustahkamlash borasida eng zarur masalalar qatorida ta’lim, maorif tizimini sovetlar manfaatlariga, bolshevistik mafkuraga bo‘ysundirish kerakligini ko‘rishgan. Bunday yondashuv Rossiya imperiyasi davridagi mustamlakachilarining ta’lim sohasidagi siyosatiga qaraganda ancha qo‘pol, ochiqdan-ochiq g‘ayri milliy ekanligini namoyon etar edi. Masalan, 1918 yilda

<sup>1</sup> Тиловатов Ф.У. XX асрнинг 20-30 йилларида “маданий инқолоб” сиёсати ва унинг Ўзбекистонда амалга оширилиши. – Тошкент. 2009. – Б. 39.

Munavvar qori Abdurashidxonov O‘rtta Osiyoda, dunyoviy o‘quv dasturlar asosida faoliyat olib boruvchi dastlabki oliy o‘quv yurti – Turkiston xalq universitetini Toshkent shahrida barpo etish tashabbuskori va tashkilotchisi bo‘ldi.

1917-yil 28-oktabrda hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar Maorif bo‘yicha Davlat komissiyasini tashkil etish to‘g‘risida dekret qabul qilib, inqilobdan oldingi Xalq ta’limi vazirligining barcha funksiyalari unga o‘tkazildi. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati ikkita muammoni hal qilishga qaratilgan edi: bolalarga ta’lim berish, ya’ni mактабда o‘qitish va kattalar ta’limi. Asosiu e’tibor birinchi navbatda, savodsizlikni yo‘q qilishga qaratilgan edi.

1917 yil oktabridan 1919 yil dekabrigacha A.V.Lunacharskiy boshchiligidagi Xalq Maorif Komissarligi tarkibida N.K.Krupskaya boshliq maktabdan tashqari bo‘lim ish olib bordi. Ko‘p o‘tmay bu bo‘limlar maktabdan tashqari bo‘limga birlashtirilib, kattalar o‘rtasida savodsizlikni bartaraf etish bo‘yicha barcha ishlarga mas’ul bo‘ldi<sup>2</sup>.

Ta’lim sohasidagi ijtimoiy siyosat boshqa sohalardagi kabi mafkura bilan chambarchas bog‘liq. Bu, ayniqsa, milliy miqyosdagi siyosiy maqsadlarga erishish, ayniqsa hokimiyatni mustahkamlash asosidagi mafkuraviy ishlarning muvaffaqiyatiga bevosita bog‘liq bo‘lgan. Mazkur holat Sovet hokimiyatining XX asr 20-yillarida yuritgan siyosatida yaqqol namoyon bo‘ldi. Umumiy savodsizlikni tugatish mamlakat ijtimoiy hayotini modernizatsiya qilish va ommaviy sanoatlashdirishga, balki bolsheviklar hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan davlat mafkurasini o‘rnatish uchun harakatlarning asosiy quroliga aylantirildi<sup>3</sup>.

Kattalar ta’limining ijtimoiy loyihasi bolshevik ruhidagi barcha salbiy tomonlari va xarajatlari bilan, maqsad vositalarni ishga solgan holda va keng ko‘lamli hal qilinmagan muammolarni ko‘rsatib qo‘ydi. Ushbu ma’rifiy loyihaning borishi, unga bog‘liq bo‘lgan holatlar, natijalar va noto‘g‘ri hisob-kitoblarni muhokama qilish va shu bilan Sovet jamiyatini o‘zining dastlabki tarixi bosqichida modernizatsiya qilish jarayonlari tarixi hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ta’lim tizimining asosini tashkil qiluvchi o‘qituvchilarining moddiy ta’minlanganlik darajasini oshirish maqsadida yaratilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar borgan sari ko‘payib bormoqda. Maktab - kadrlar tayyorlash tizimining dastlabki bosqichidir. Sovet davrida maktablarning kundalik hayoti qat’iy ishlab chiqilgan tartib asosida amalga oshirildi. O‘quv kuni boshlanishi va uni qanday o‘tkazish, o‘quvchilar jalb etilgan jamoat tashkilotlari - oktabr, pioner, komsomoldan tortib, o‘quvchiga ta’lim-tarbiya berish siyosiy jihatdan qolipga solingan edi. Keyinchalik psixolog va pedagoglar tomonidan an’anaviy sovet ta’lim tizimini ijodiy fikrlashga qodir bo‘lmagan, partiya uchun xizmat qiladigan armiya tarbiyalashda ayblandi. Chunki o‘qituvchilar partiyaning quroliga aylanib qoldi.

1918 yildagi xalq komissarlarining savodsizlikka qarshi kurashga bag‘ishlangan birinchi farmonining sarlavhasi “Savodxonlarni safarbar qilish va Sovet tuzumining targ‘ibotini tashkil etish to‘g‘risida” deb nomlanib Sovet ta’lim loyihasining tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi<sup>4</sup>. Bu farmonning uchinchi bandida mahalliy sovet hokimiyati organlariga “Aholini bu o‘qishlarni tashkil etish to‘g‘risida e’lonlar, mitinglar va yig‘inlar orqali

<sup>2</sup> Бабаджанов М.М. Борьба за ликвидацию неграмотности в кишлаках Узбекистана (1925-1926 гг). – Ташкент. 1960. – с. 27.

<sup>3</sup> РСФСР. Народный комиссариат просвещения. Внешкольный отдел подотдел подготовки персонала, 2 марта 1920 г. – С. 1-2.

<sup>4</sup> Фрид Л. Очерки по истории развития политico-просветительной работы в РСФСР (1917-1929 гг.). – Ленинград, 1941. – С. 103.

xabardor qilish va ularda inqilobiy Rossiyaning umumiy yo‘li bilan tanishish zarurligini tushuntirish; Markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining amaldagi siyosati va qonunchiligi haqida aholi orasida ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishni nazarda tutardi.

1919-yil 26-dekabrdagi “RSFSR aholisi o‘rtasida savodsizlikni tugatish to‘g‘risida”gi Farmonda respublikaning 6 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan, o‘qish va yozishni bilmaydigan barcha aholisi “o‘qish va yozishni o‘rganishi shart” deb ta’kidlangan. Savodxonlik fuqarolarning huquqi emas, balki majburiyati bo‘lganligi sababli, farmonda o‘qishdan qochishga urinish uchun jinoiy javobgarlikgacha bo‘lgan jazo choralar ko‘zda tutilgan edi.

Biroq, hayotning boshqa sohalarida bo‘lgani kabi bolsheviklar savodsizlikni bitirish tadbirlariga ham inqilobiy tus bergen holda uni “madaniy inqilob” tadbirlari bilan bir vaqtida amalga oshrishga kirishdi. Ammo tadbirlarning dastlabki bosqichi o‘zidan kutilgan natijani bermadi va hukumat yordami bilan tizimli ishlarni tashkil etishga o‘tishga majbur bo‘ldi.

1920-yil 2-martda Xalq Maorif Komissarligining mакtabdan tashqari bo‘limi barcha viloyat, shahar va tuman xalq ta’limi bo‘limlariga maktub yo‘llab, bundan keyingi targ‘ibot ishlarining istiqbollarini belgilab berdi. Unda ta’kidlanishicha, “bo‘limlar kampaniya uchun kuch oladigan birinchi manba maktab va maktabdan tashqari ishchilar bo‘ladi. Ammo, bir tomonidan, ularning kuchi yetarli bo‘lmasligi mumkin, ikkinchi tomonidan, ularning kundalik ishlariga haddan tashqari jalb etilishi natijasida ular har doim ham savodsizlikni tugatish uchun zarur bo‘lgan ishtyoq va ishonch kuchini sarflay olmaydilar<sup>5</sup>.

Bol’sheviklar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalari kabi ma’naviy hayotga ham o‘z ta’sirlarini o‘tkazish uchun «maorif», «maktab», «o‘qituvchilar» muammosini ychishga kirishdilar. Ayniqsa, maorif sohasida bu narsa yaqqol sezildi. 1918 yilning 23 martida RSFSR Maorif xalq komissarligi farmoyishi bilan Turkiston o‘lkasida xalq ta’limi kengashi tashkil etildi. Mazkur kengash Turkiston hududida Xalq ta’limi tizimiga rahbarlik qilishi lozim edi. Joylarda viloyat, shahar, uezd bo‘linmalari ochildi. Ammo bu tashkilot tarkibiga biron-bir mahalliy millat vakili kiritilmagan edi. 1918 yil 14 mayda Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining buyrug‘i bilan yagona umumiy maktabni tashkil etishga kirishildi.

Turli tipdagи o‘quv yurtlari «o‘qishni hohlaydiganlar uchun yoshi, millati, qaysi dinga e’tiqod qilishidan qat’iy nazar, guvohnomalarsiz» ochiq qilib qo‘yildi. Iyun’ oyida Maorif xalq komissarligi barcha maktablarda bepul o‘qitish joriy etilishini e’lon qildi.

1918 yil 15 iyunda Turkiston o‘lkasi xalq maorifi xodimlarining s’ezdi kazilib, unga mahalliy millat vakillaridan juda ozchilik taklif etildi. Kommunistlar rahbarligida maktabni qayta qurish masalalari muhokama qilindi. Asosan rus millati vakillari ishtirok etgan, o‘lkadagi maorif va maktab sohasida yig‘ilgan bir qator muammolarni «hal etish» maqsadida yig‘ilgan bu anjuman keskin munozaralar ostida o‘tsada, biron-bir natijasiz tugadi.

Biroq amalda bol’sheviklarning rahbarlari tomonidan ishlab chiqilgan «madaniy inqilob» dasturiga ko‘ra maorif sohasini «tubdan yangilash», ya’ni ilgaridan mavjud bo‘lib kelgan barcha turdagи o‘quv muassasalarini yo‘q qilish, o‘quv-tarbiya jarayonini siyosiylashtirish, proletar g‘oyasini targ‘ib qilish va uning hokimligini o‘rnatish bosh maqsad edi. O‘scha vaqtarda mahalliy xalq orasida katta obro‘ topgan jadid maktablari, undagi o‘qitish tizimi, tajribasi esa umuman e’tibordan chetda qoldi. Bu haqda «Turkiston musulmonlarining maorifi haqida» deb nomlangan

<sup>5</sup> Хушбеков А. Из истории культурного строительства в Узбекистане в годы первой пятилетки. – Самарканд: Изд-во Узбекского государственного университета, 1959. – С. 4.

maqolada yozilishicha, «Respublika maktablari ruslar va boshqa mayda millatlar uchun ommabop bo‘lsada, musulmonlar son jihatdan ustunligiga qaramay (aholining 95 foizi musulmonlar), ular uchun deyarli hech narsa qilinmadi, ... va bunga sabab, birinchidan, ommaning eski hayot tarziga o‘rganganligi, ikkinchidan, ularning etarli darajada uyushmaganligi va buning natijasida ular orasidan maorif komissarining yo‘qligi, uchinchidan, O‘lka Maorif xalq komissarligining noto‘g‘ri tuzilganligi bo‘lib, u ham xuddi chorizm davridagidek musulmonlar maorifiga e’tibor bermay, qo‘l orasidan qarash yo‘liga o‘tib olganligida» edi<sup>6</sup>.

Turkiston Maorif xalq komissarligining qo‘l ostida respublika xarakteriga ega bo‘lgan maktablar bo‘lib, o‘lka musulmonlari uchun faqat 100-130 ta shunday maktablar ochilgan. Bundan tashqari bu maktablarda 7 ta o‘rniga faqatgina 1 yoki 2 ta boshlangich sinflar ochilgan bo‘lib, rus-tuzem maktablarining hammasi ham respublika maktablariga aylantirilmadi, mahalliy musulmon aholisi esa maktab va madrasalarda o‘qib, ularda yili-ga 50 000 ga yaqin musulmon ta’lim olar edi. Bu maktablarga Maorif xalq komissarligida yomon ko‘z bilan qarash, ularning ishiga aralashmaslik yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri 50 yillik eski podsho hukumati davridagidek umuman tan olmaslik prinsiplari qo‘llanilgan. Maorif xalq komissarligi qoshida maktab va madrasalar ishlariga umuman o‘rin berilmagan, musulmon makgablari hech qanday birlashtiruvchi tashkilotga ega bo‘lmay o‘z holiga tashlab qo‘yilgan, ular bilan hech kimning ishi bo‘lмаган<sup>7</sup>.

Sovet maktablarini tashkil etish jarayonida eski usul maktablariga tegilmadi, yangi usul maktablari (jadid maktablari) xalq ta’limi bo‘limlari ixtiyoriga o‘tkazildi. 1918 yilda mahalliy o‘qituvchilarining o‘zlari maktablar uchun dasturlar va o‘quv rejalarini tuzib chiqdilar. Dasturga o‘zbek va rus tillari, arifmetika, geografiya, tabiatshunoslik, mehnat, ashula, gimnastika fanlari kiritilgan edi. Tub erli aholi orasida bilimga intilish kuchli edi. Shuning uchun ham yangi maktablar tashkil etish faqat davlat idoralarinigina emas, balki jamoat vakillarining ham faol ishtirokini taqozo qilardi.

Dastlabki o‘zbek sovet maktablari mablag‘lardan qisib qo‘yilgan bo‘lib, ularga o‘quv vositalari va qo‘llannalar etishmasdi. Moddiy ahvolning og‘irligiga ko‘p jihatdan sovet mahalliy ma’murlarining yerli aholining bilimli bo‘lishiga nisbatan mustamlakachilik munosabatida bo‘lishi ta’sir qildi, bu esa 1918-1920 yillar davrida rus tilidagi o‘quv yurtlari va tub yerli aholi bolalari uchun mo‘ljallangan maktablarni mablag‘ bilan teng asosda ta’minlaslikka olib keldi.

Maorif xalq komissarligi uchun kadrlar masalasi maktab qurilishidagi bosh muammo edi. Yangi tuzum pedagoglarini tayyorlash, ayniqsa, birinchi navbatda mahalliy maktablar o‘qituvchilarini tayyorlash uchun har tomonlama chora-tadbirlar belgilandi. Binobarin, o‘qituvchilar tayyorlash butunlay yangicha negizda - qisqa muddatli kurslar orqali yo‘lga qo‘yildi. 1918 yilning yozida Samarqandda «musulmon o‘qituvchilari uchun pedagogik kurslar» ochildi. O‘scha yilning kuzida Toshkent uezdining tub erli aholisi uchun Toshkentda maktab o‘qituvchilari kurslari yo‘lga qo‘yildi. Qisqa muddatli kurslar tizimi, eng avvalo bo‘lajak o‘qituvchilarda siyosiy ongi shakllantirishga va faqat yangi rejimning mafkuraviy yo‘l-yo‘riqlarini o‘zlashtirishga qaratilgan edi. Kurslarning dasturlari, xususan, sotsializm va inqilobiy harakat tarixini, siyosiy iqtisod hamda milliylashtirish va ijtimoiylashtirish g‘oyalarini, bol’shevistik partianing dasturlari hamda taktikasini o‘rgatishni o‘z ichiga olgan edi.

Boshlang‘ich yetti yillik maktab ikki pog‘onaga bo‘lindi: 1-pog‘ona bilim yurtlari (dastlabki uch sinfni o‘z ichiga olardi) va 2-pog‘ona bilim yurtla-ri (qolgan to‘rt sinfdan iborat edi). O‘rta

<sup>6</sup> Фаффоров Ш.С. Фоффоров Ш.С. Ўзбекистонда таълим тизими тарихи. Дарслик. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2022. – В. 238.

<sup>7</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. – Андижон, 2004 йил. – В. 396.

maktab ham mavjud bo‘lib, keyingi uch sinfni o‘z ichiga olardi. Biroq bunday maktablar juda oz bo‘lib, 1-pog‘ona bilim yurtlari, ya’ni eng oddiy ta’lim beradigan maktablar tabiiy yo‘lga qo‘yishda rus pedagoglaridan Farg‘onada ishlagan A.V.Yaxontov va A.P.Sutyagin, Toshkentda K.Libknext nomidagi tajriba mehnat maktabini tashkil etgan V.F.Lubensovlar ko‘p ish qildilar. Yirik shaharlardagi bir qator rus maktablari va Toshkentdagagi o‘zbek maktablarida fidokor pedagoglarning intilishlari tufayli 1920 yil oxirida o‘quv-metodik ishlar asta-sekin yo‘lga qo‘yila boshlandi. Lekin shuni alohida ta’kidlash joizki, bu davrda hali o‘qituvchilarning kasbiy saviyasi juda past edi<sup>8</sup>.

Turkiston o‘lkasida xalq maorifini tahlil qilish, uning echilish yo‘llari va usullarini izlash, etuk kadrlar tayyorlash kabi masalalar milliy ziyolilarning doimo diqqat markazida bo‘lib keldi. Albatta, o‘z davri uchun bu masalalarning hal etilishi turli xil fikrlar, tortishuv va bahslarga sabab bo‘lgan. Xususan, 1918-1920 yillarda nashr etilgan «Ishtirokiyun» gazetasi sahifalarida Turkiston o‘lkasidagi maorifiing ahvoli, yangi maktablar tuzish, o‘qituvchilar tayyorlash muamolari to‘g‘risida turli-tuman takliflar o‘rtaga tashlandi. Ko‘pchilik maqola mualliflari bevosita maorif va maktablarning rivojida sodir etilayotgan kamchiliklarni ro‘yirost ko‘rsatishga harakat qilganlar, Mualliflar, «maktab ila turmushni birlashtiruv, hunar o‘rganmoq, o‘quvchilarga hurriyat tahsil bermoq, hamma maktablarni maorif komissariata nazoratiga olmoq zarur» degan g‘oyalarni ilgari surganlar va bu bilan birga ular barcha ta’lim tizimini birlashtirib, yagona markaz nazoratida bo‘lishi tarafdori edilar, Turli mutaxassislarni etkazishda ziyolilar Turkiston o‘lkasida ixtisoslashgan gimnaziya, litseylar ochish fikrini o‘rtaga tashlaganlar. Biroq bu takliflar inobatga olinmay qolavergan.

Bol’shevikkarning «madaniyat dasturi»ga ko‘ra o‘qitish usulini yangilashda o‘quvchilarning estetik tarbiyasini proletarlashtirishga e’tibor berish, ularni mehnatga jalb etish, fanlarni isloh qilish va albatta, «sotsialistik g‘oya» ruhida tarbiyalash masalalari ustuvorlik qilishi zarur edi. 1920 yilda o‘lkada birinchi hunar-texnika bilim yurtlari paydo bo‘ldi<sup>9</sup>.

1920-21 o‘quv yili boshlarida Turkiston Avtonom Sovet Respublikasida tub erli millatlarning bolalari uchun mo‘ljallangan 1 -bosqich maktablari (ya’ni dastlabki uch sinfli maktablar)ning soni 802 taga etdi, 2-bosqich maktablari 4 ta edi, Yevropaliklar uchun maktablar esa tegishli ravishda 604 ta va 45 ta edi. Respublikaning barcha viloyatlarida evropaliklar uchun maktablar tashkil qilishga jiddiy e’tibor qaratildi. Bu borada Toshkent shahri alohida ajralib turardi, xususan, mablag‘ va moddiy vositalarni taqsimlashda uning yangi shahar (Yevropa) qismi imtiyozi mavqega ega edi<sup>10</sup>.

Xalq ta’limi sohasida so‘nggi uch yilda ro‘y bergen o‘zgarishlarga 1920 yilda yakun yasaldi. Sovet maktablarining tez o‘sishi Turkiston maktab tizimini boshi berk ko‘chaga olib kirdi. Jiddiy moddiy ta’mnotinig yo‘qligi va kadrlar bilan ta’min etilmaganligi ko‘pgina «qog‘ozdag‘i maktablar»ning mavjudligini shart qilib qo‘ydi. Natijada, maktab yoshidagi bolalarning 70 foizdan ko‘pi maktabga jalb qilinmadni. Masalan, hatto Toshkentda, uning eski shahar qismida maktab yoshidagi 40 ming boladan faqat 10 ming nafarga yaqini, ya’ni 25 foizi o‘qirdi, xolos. Hokimiyat tepasida bol’sheviklar turgan qisqa davrda Yevropacha tipdagi («burjua» maktabi) - rus, rus-tuzem maktablariga, yangi usul (jadid) maktablariga putur etdi. Biroq bol’shevikkarning yangi «yagona mehnat maktabi», ko‘p jihatlardan, putur etkazilgan maktablarga nisbatan etarli

<sup>8</sup> Фрид Л. Очерки по истории развития политico-просветительной работы в РСФСР (1917-1929 гг.). – Ленинград, 1941. – С. 103.

<sup>9</sup> Asfandiyorovich, N. F. (2022, May). HISTORY IN EDUCATION OF UZBEKISTAN 20-30 YEARS OF THE XX CENTURY. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 419-422).

<sup>10</sup> Гоффоров Ш.С. Ўзбекистонда таълим тизими тарихи. Дарслик. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2022. – В. 242.

darajada bilim berolmas edi. 1920 yil oxiriga kelib o‘quvchi yoshlarning bilim saviyasi nihoyatda pasayib ketdi. Umuman, bilim olish I bosqich (dastlabki uch sinf) boshlang‘ich maktabi darajasida bo‘ldi. Tashkil qilingan II bosqich maktablari (4-7-sinflar) o‘quvchilar yo‘qligi sabab tarqatib yuborildi. Maktablarning moddiy jihatdan ta’milanishi tang ahvolga tushganligi, moliyaviy qiyinchiliklar, 3-4 oylik bilimga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning maktablardan uzoqlashuvi kabi illatlar maktablarning keskin ravishda qisqarishiga olib keldi<sup>11</sup>.

Turkiston ASSR Xalk Komissarlari Soveti tomonidan 1923 yil 11 noyabrdan madaniyat va maorif xodimlarining xalq maorifi masalalariga oid kengaytirilgan majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda maktablar qurilishi tarqoq, biron-bir dastursiz barpo etilayotganligi, xozirda esa juda ogir ahvolda ekanligi ta’kidlab ko‘rsatildi. Jumladan, Turkistonda maktablar taraqqiyoti 3 bosqichga bo‘lib ko‘rsatildi: bиринчи bosqich 1918-1921 yillar bo‘lib, bu davrda o‘lkada 10-22 mingga qadar mактаб tashkil bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi boskich - bu sovet maktablarining parchalanishi davri hisoblanadi. Chunki yangi iqtisodiy siyosat tufayli sovet hukumati maorif tizimidagi muassasalarni ta’minlay olmagan va 11 ming o‘quv muassasasidan faqat 35 tasi davlat ta’minotida qoldirilib, qolganlari mahalliy byudjetga topshirilgan. Bunday holatda maktablar to‘rt-besh oylab moddiy ta’mintsiz qolib, tez orada yo‘qolib ketdi. Bu vaqt mobaynida maktablar 1,139 taga qisqarib, keyinchalik, ulardan 539 tasi shartnoma asosida aholi mablag‘i hisobiga ta’minotga o‘tkazilgan. Uchinchi bosqich, 1922 yildan boshlanib, bиринчи davrdagi maktablardan ixlosi qaytgan aholi u erga bolalarini yubormay qo‘ydilar va maktab-madrasalarning yordamiga tayandilar<sup>12</sup>.

Turkiston maorif xalq komissarligi tub aholining turmush shart-sharoitlarini hisobga olgan holda 1918 yil 9 noyabrdagi 38-son buyruqning 4-moddasiga muvofiq o‘lkadagi sovet musulmon maktablarida diniy darslarning o‘qitilishiga ruxsat bergan edi. O’sha davrda o‘lka maorif komissari vazifasida bo‘lgan Majid Amin Afandizoda va «turk sho‘basi»da ishlagan Munavvar Qori musulmon aholiga qarata qilgan xitobnomalarida «musulmon maktablarida tahorat va shunga o‘xhash muhim havoij diniyalarni o‘rgatmakka muallimlarga ixtiyor berilgan»ligi to‘g‘risida alohida to‘xtalganlar. Bu esa Toshkent, Samarqand шаҳарларida sovet maktablarining o‘sishi bilan izohlanadi. Biroq joylardagi mahalliy hokimiyatlar ushbu qarorni bekor qilib, bunday maktablarni yopib qo‘yanlar. Bu hodisa esa xalqning sovet maktablaridan uzoqlashuviga olib kelgan edi. 1922 o‘quv yilidan diniy ta’lim u yoki bu tuman aholisining xohish-irodasiga qarab kiritilishi va har kuni mulla yoki o‘qituvchi tomonidan olib borilishi lozim edi. Bu masala 1922 yilda o‘tkazilgan o‘zbek madaniyati va maorif xodimlarining s’ezdida ham ko‘rib chiqilib, «o‘zbeklarni yangi maktabga jalb qilish va ommanning dingga bo‘lgan yuksak hurmatdagi ruhiyatini hisobga olib, maktablarga din darslarini kiritish kerak», deb qaror qilingan edi<sup>13</sup>.

Ko‘philik joylarda dindorlarning, agar sovet maktablarida din darslarining o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilsa, moddiy jihatdan ta’minlashlari haqidagi arizalar topshirayotganliklari, diniy darslarni o‘qitishga qarshilik bo‘lgan joylarda esa «boykot» e’lon qilganlik holatlari ham uchragan. Sovet maktablarida din darslarining o‘qitilishi haqidagi masalalarda milliy ziyolilarning xalqning psixologiyasi, o‘lkaning shart-sharoitidan kelib chiqqan holda yon berishlarini ko‘rsak, ovro‘palik ziyolilar esa aksincha bu masalaga murosasiz qarshi chiqishgan. Ular «eski maktab tuzilishining mohiyatini tamomila tag-tugi bilan yo‘qotish va shu bilan birga yangi asoslarni joriy qilish

<sup>11</sup> Asfandiyorovich, N. F. (2022). XX asrning 20-30 yillari oliy ta’limda tarix o‘qituvchilarini tayyorlash masalalari. *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar*, 72-75.

<sup>12</sup> Хушбеков А. Из истории культурного строительства в Узбекистане в годы первой пятилетки. – Самарканд: Изд-во Узбекского государственного университета, 1959. – С. 6.

<sup>13</sup> Фойибназаров Ш. Ижтимоий ривожланиш сабоқлари (20-йиллар таҳлили). – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – В. 137.

darkor», deb hisoblaganlar. Sovet maktablarining nochor ahvolga tushib qolishi, shuningdek, o‘quvchilarning an‘anaviy diniy maktablarga ketib qolishi jadidlarni milliy o‘zbek maktabini tashkil etish dasturini taklif qilishga undadi. 1920 yil may oyida bo‘lgan xalq ta’limi bo‘limlari mudirlarining I qurultoyida Munavvar Qori vaqflardan tushadigan daromadlardan foydalanib, hukumatning tegishli yordam ko‘rsatib turishi bilan minglab eski, usul maktablari va madrasalarni (ularning dasturini o‘zgartirish va boshqa chora-tadbirlar bilan) diniy o‘quv yurtlaridan «madaniy-oqartuv manbalariga aylantirish mumkin» deb hisoblagan. 1924 yil «Farg‘ona» gazetasi sahifalarida Bosh vaqf boshqarmasining hisoboti berilib, u Toshkent vaqf shu’balari faoliyati misolida ochib beriladi. Unda yozilishicha, «Bosh vaqf idorasini o‘zining ta’minoti uchun mahalliy shu’balarning umumiylaridan 10 foizini olib qolgan, qolgan 90 foizini mahallalarning o‘zida maorif va madaniyat ishlariga sarflaydir (Vaqf idorasining 1923 yildagi butun daromadi 6 529 653 rublni tashkil etgan)».

Biroq yagona partiyalı kommunistik diktatura sharoitida jadidlarning milliy maktab haqidagi g‘oyasining amalga oshishi mumkin bo‘lmagan. Eski musulmon konfessional maktabini tugatish zarurligini anglab etgan hokimiyat faqat birgina tipdagи sovet maktabini tashkil etishni mo‘ljallagan. Eski maktab esa boshqa tipdagи maktablardan farqli o‘laroq, vaqtincha daxlsizligini saqlab qolgan edi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Тиловатов Ф.У. XX асрнинг 20-30 йилларида “маданий инқилоб” сиёсати ва унинг Ўзбекистонда амалга оширилиши. – Тошкент. 2009.
2. Бабаджанов М.М. Борьба за ликвидацию неграмотности в кишлаках Узбекистана (1925-1926 гг.). – Ташкент. 1960.
3. РСФСР. Народный комиссариат просвещения. Внешкольный отдел подотдел подготовки персонала, 2 марта 1920 г.
4. Фрид Л. Очерки по истории развития политico-просветительной работы в РСФСР (1917-1929 гг.). – Ленинград, 1941.
5. Хушбеков А. Из истории культурного строительства в Узбекистане в годы первой пятилетки. – Самарканд: Изд-во Узбекского государственного университета, 1959.
- 6.Faafforov Ш.С. Faafforov Ш.С. Ўзбекистонда таълим тизими тарихи. Дарслик. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2022.
7. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. – Андижон, 2004 йил.
8. Фойибназаров Ш. Ижтимоий ривожланиш сабоқлари (20-йиллар таҳлили). – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
9. Asfandiyorovich, N. F. (2022). XX asrning 20-30 yillari oliy ta’limda tarix o ‘qituvchilarini tayyorlash masalalari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 72-75.
10. Asfandiyorovich, N. F. (2022, May). HISTORY IN EDUCATION OF UZBEKISTAN 20-30 YEARS OF THE XX CENTURY. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 419-422).